

- boshqa barcha oliy ta'lim muassasalarining ballari shu mezon bo'yicha eng yuqori ballga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining ko'rsatkichiga nisbatan hisoblanadi;
- har bir mezon bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi oliy ta'lim muassasalari reytingini belgilaydi.

Reyting natijalari har yili keyingi o'quv yili boshlanishidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya sinining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish joizki, U-Multirank, ARWU, QS World University Rankings, THE World University Rankings, THE Europe Teaching Rankings, CWUR kabi bir qator reyting tizimlaridan foydalanib kelinmoqda. Bu reyting tizimlari ta'lim sifati bilan bog'liq bo'lgan 10 ta asosiy mezonlar asosida OTM faoliyatini baholaydi. Bunda ko'rsatkichlar so'rovnomaga va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash hamda taqqoslash orqali aniqlanadi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish, ularning milliy milliy reyting tizimini ishlab chiqish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasini Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2018-yildan OTMLar milliy reytingi joriy etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati, 22-dekabr 2017-yil;
2. Gover, A. and Loukkola, T., 2018, Enhancing quality: From policy to practice (Enhancing Quality through Innovative Policy & Practice/EQUIP). <http://bit.ly/30mvwM2>(accessed 04/05/2020).
3. McCormick, A. C., 2017, 'The intersection of rankings with university quality, public accountability and institutional improvement, in Hazelkorn, E. (Ed.) Global Rankings and the Geopolitics of Higher Education: Understanding the influence and impact of rankings on higher education, policy and society (London and New York, Routledge), 205-15.
4. Rauhvargers, A., 2011, Global university rankings and their impact (Brussels, EUA). <https://bit.ly/2LUwLgi>(accessed 04/05/2020).
5. Loukkola, T.:2017, Europe: Impact and influence of rankings in higher education', in Hazelkorn, E. (Ed.) Global Rankings and the Geopolitics of Higher Education: Understanding the influence and impact of rankings on higher education, policy and society (London and New York, Routledge), pp. 103-15.
6. Raximov O.D., Eshmuxamedov L.M. Chet el oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini baholash, "International conference on learning and teaching" 2022/6
7. Qahhorov O.S. Ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017-yil.

Bahora NARZULLAEVA,

*Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi
"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti,
Toshkent, O'zbekiston*

KO'P MILLATLI OILADA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Maqolada ko'p millatli oilada tolerantlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari takomillashtirish hamda oilada tolerantlik darajasining asosiy ko'rsatkichlari haqida fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Oila, ko'pmillatli, tolerantlik, tamoyillar, bag'rikenglik, osoyishtalik, tolerant inson, muloqot.

В статье представлены отзывы о совершенствовании социально-педагогических аспектов развития толерантности в семье и основные показатели уровня толерантности в семье.

Ключевые слова. Семья, толерантность, принципы, мир, толерантный человек, общение.

The article provides feedback on improving the socio-pedagogical aspects of the development of tolerance in the family and the main indicators of the level of tolerance in the family.

Key words. Family, tolerance, principles, peace, tolerant person, communication.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi hayotimizda tolerantlik tushunchasi xalqaro miqyosda insoniyat turmush tarzi va rivojining zaruriy bo'lgan muloqot shartidir. Xalqaro YUNESKO tashkilotining 1995-yil bo'lib o'tgan bosh konferensiyasida "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilingan edi. Hozirgi kunda bu deklaratsiyaga a'zo bo'lgan mamlakatlar soni 185 taga yetdi. Mamlakatimiz ham ularning safidan o'rin oldi. Qomusiy lug'atlarda "tolerantlik" lotincha "tolerantio", ya'ni "sabr-toqatlilik", "keng fe'llilik", "bag'rikenglik" ma'nolarini anglatadi. Tolerantlik – bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishdir. Tolerant inson – ma'naviy, axloqiy qadriyat va fazilatlarga ega bo'lgan shaxsdir. Jamiyatning madaniy va axloqiy rivojlanishi insonlarning bag'rikengligiga bog'liqdir. Har bir odam shaxs sifatida o'z qarashlariga, o'z xosligiga ega ekan, shu nuqtayi nazardan har bir insonga alohida, o'ziga xosligini hisobga olgan holda muomala qilish va har qanday sharoitda unga nisbatan tolerant bo'lish lozim va shart.

"Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi". Tolerantlik oilaviy qadriyatlar ichida muhim o'rin egallaydi. U faqat maqsadli tashkil qilingan pedagogik muhit va jarayonda shakllanadi. Shu bois, tolerantlik nafaqat ijtimoiy, balki pedagogik hodisa hisoblanadi. Oila – bolaning ilk ma'naviy qadriyatlari, shu jumladan, tolerantlik tafakkuri shakllantiriladigan pedagogik makon hamdir.

Tolerantlik ijtimoiy-tarixiy hamda psixologik-pedagogik kategoriyadir. Tolerantlik tafakkuriga egalik – individumning shaxs sifatidagi taraqqiyoti, uning insonparvarlik talablari asosidagi kamoloti, ma'naviy-axloqiy yetukligi, estetikasi, sivilizatsiya qadriyatlari asosida shakllantirilgan keng dunyoqarashi, tolerantlikni qo'llay olish qobiliyati, fuqarolik jamiyati hayotida faol bo'lish malakalari kabi xususiyatlarni anglatadi hamda u ma'naviy-axloqiy sifat hisoblanadi.

Tolerantlik – inson individualligiga xos bo'lgan insonparvarlik, mehr-muruvvat, o'zgalarni hurmatlash va e'zozlash, bironlarga zarar yetkazmaslik, kechirimli bo'lish, barqarorlik, tinchlik va totuvlikka asoslanib hayot kechirish kabi fazilatlarining majmui bo'lib, jamiyatda inson ularni ochiq namoyon qila olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Tolerantlik masalasi ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun xos xarakterga ega bo'lib, uning tarbiya ob'ekti shaxsdir. Jumladan: tolerantlik va ta'lim-tarbiya; tolerantlik va oila; tolerantlik va din; tolerantlik va mahalla; tolerantlik va axloq; tolerantlik va havfsizlik; tolerantlik va milliy g'oya; tolerantlik va madaniyat; tolerantlik va milliy madaniyat o'ziga xosligini saqlab qolish; tolerantlik va huquq; tolerantlik va ilm-fan; tolerantlik va gender munosabatlar; tolerantlik va sotsium hayoti; tolerantlik va jamiyat; tolerantlik va ijtimoiy tabaqalanish; tolerantlik va yoshlar; tolerantlik va nogironlar; tolerantlik va qariyalar; tolerantlik va kam sonli millatlardan iborat[1,2,3].

Oilada tolerantlik darajasi ikki asosiy ko'rsatkich: an'anaviy tolerantlik hamda, zamonaviy tolerantlik tushunchalari asosida namoyon bo'ladi. Shuningdek uning namoyon bo'lish qamrovi kichik makon (ota-ona, aka- uka, opa-singil, bobo-buvi) va katta makon (yaqin va uzoq qarindosh urug'lar) tarzida aks etadi. Oilada o'smirlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishda ikki asosiy potentsial mavjud bo'lib, u – ota-ona shaxsiyati va ibrati hamda bolaning o'zidagi o'z shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'sish va bunyodkorlik istagidan iboratdir. O'smirda tolerantlik tafakkurini o'ziga xos bo'lgan institutsional va funktsional tizim asosida shakllantiriladi. Tolerantlik tarbiyaviy nuqtai nazardan o'z huquq va ozodliklarini o'zgalarga ziyon yetkazmagan holda saqlab qolish demakdir. Shu bilan birga, tolerantlik o'zgalarga bo'ysunish, o'zligidan voz kechish bo'lmay, balki faol hayotiy pozitsiyada bo'lish demakdir. Ammo mana shu faol hayotiy pozitsiya agressiya va tazyiq bilan emas, balki o'zgalar huquqlariga hurmat va anglash jarayonida aniq, to'g'ri, ochiq bayon qilinadi. Bu jarayon har ikki tomon uchun ham kompromislar jarayoni hisoblanadi. Bu o'smir yoshdagi bolaning psixologik va yosh xususiyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kompromisga bora olmaydigan inson – tolerant inson hisoblanmaydi.

Tolerantlikning quyidagi bosqichlari mavjud:

Tan olish – boshqa insonda aynan boshqa insonni ko'ra bilish, boshqa insonning esa o'z qadriyatlari, fikrlash tarzi, tafakkuri, xarakteri, aqidalari, e'tiqodi, madaniyati, urf-odatlar, mantiqi va mas'ullik darajasi borligini nazarda tutish va tan olish; Qabul qilish – mana shu o'zga insonlarning o'ziga xosligiga neytral munosabat ko'rsata olish, ularning borligini qabul qilish, insonlararo mavjud farqlarga ijobiy va to'g'ri munosabat ko'rsata olish; Tushunish – o'zga insonni ichdan ko'ra bilish, uning fikrlari, hissiyotlarini ko'ra olish, uni anglay bilish, uning hissiyotlariga ikki mavqe, o'z shaxsiy mavqe va o'zga inson mavqe nuqtai nazaridan qaray olish, muammolarni shu pozitsiyadan yechishga intilish, kompromislarga tayyorlik.

“Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi”da ta'kidlanganidek: “ta'lim va tarbiya tolerantlik tafakkurining o'rnatilishida eng samarali yo'l hisoblanadi”. Tolerantlik tafakkurini shakllantirish jarayoni, avvalo, oilada samarali kechadi. Ushbu jarayonning faol obyekti esa o'smirlar hisoblanadi.

Mazkur tizimdagi har bir bo'g'inning o'zaro aloqasi va hamkorligi o'smir hayoti hamda tolerantlik tafakkuri shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning sifat ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar esa tarbiya, muhit, imkoniyat, ota-ona, o'qituvchi-tarbiyachi, keng jamoatchilik, matbuot, OAV lari, hayotda bo'layotgan voqea va hodisalar, ta'lim va tarbiyaning samarali shakl, metod hamda vositalari hisoblanadi. O'smir qiziqishi, dunyoqarashi, hayotiy ideali, voqea va hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabati, psixologik xususiyatlari ham katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, oilada bu jarayonni avtoretar tarzda boshqarish ijobiy samara bermaydi. Balki bu jarayonda ota-ona “ota-ona”, “ustoz”, “shogird”, “o'quvchi”, “do'st”, “maslakdosh”, “sirdosh” roliga o'zini namoyon etmog'i lozim. Oilada ushbu yo'nalishda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning maqsadli va rejali amalga oshirilishi, natijalar samaradorligi esa doimiy monitoring qilinishi, ota-onalarning mazkur muammo bo'yicha bilim darajasi muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqotlar samaradorligi oilalardagi ma'naviy muhit xarakteriga ko'ra toifalarga ajratilgan holda o'tkazilishi samarali kechimi o'z isbotini topdi. Jumladan, biz oilalarni to'rt guruhga ajratdik: (1) oilaviy muhit tinch va totuvlikka asoslangan va bolalar manfaatlarini inobatga olinadi; (2) ziddiyat mavjud bo'lmagan, ammo bolalar manfaatlarini e'tiborga olinmaydi; (3) ota va ona o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan, ammo bola manfaatlarini inobatga olinadi; (4) oilada ota va ona o'rtasida konflikt mavjud va bola manfaatlariga e'tiborsiz.

Tadqiqotlar tinch va totuv hamda bolaga e'tiborli oilalarda o'smirlarda tolerantlik tafakkuri darajasi yuqori bo'lishini ko'satdi.

Tajriba-sinov ishlari mazmuni quyidagi yo'nalishlarga asoslangan holda tashkil etilishi kutilgan natijani berishini isbotladi. Ya'ni:

- boshqa insonlarning fikrlari, qarashlari hamda madaniyatiga ochiqlik va anglash bilan munosabat bildirish, dunyo va madaniyatlar rang-barangligini qabul qilish;
- o'zgalarga nisbatan zo'ravonlik, tazyiq, bosim o'tkazishlardan voz kechib yashash, ziddiyat va konfliktlarda ularni tinch yo'l bilan hal etishga o'rganish;
- o'zgalarga hurmat va e'tibor bilan qarash, oila va jamiyatda hamkorlik, hamjihatlik, totuvlik asosida hayot kechirishga o'rganish.

Oilada o'smirlar tolerantlik tafakkurini shakllantirish: subyektlilik (har bir oila a'zosi mustaqil subyekt sifatida baholanadi); adekvat, mutanosib munosabat (pedagogik jarayonda uning mazmuni va tanlangan pedagogik vositalar, shakl va usullar o'rtasidagi mutanosiblik mavjudligi); individualizatsiya (oilada individual shart-sharoitning belgilanishi); refleksiv munosabat (oilada muayyan ahamiyatga ega bo'lgan voqea va hodisalarga nisbatan anglangan munosabatlarda umumiylik, o'xshashlikni shakllantirish); tolerant muhitni qurish (oilalardan pedagogik jarayonga tayyorlik va uni tashkil qilishda faollik ko'rsatish) kabi tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Oilada o'smirlar tolerantlik tafakkurini shakllantirishda tolerantlik obyekti adekvat interpretatsiyalash va tolerantlik mazmunini to'laqlik shakllantirish metodlari muhim ahamiyatga egadir.

O'smirning yosh va shaxsiy xususiyatlariga ko'ra oilada tolerantlikning quyidagi axloqiy-ma'naviy qirralarini shakllantirishga alohida e'tiborni qaratmoq zarur: kompromis, zo'ravonlik va tazyiqdan voz kechish, o'zini tuta bilish, tomonlarni hech qachon ayblamaslik, neytralitet, odamlarga munosabat bildirganda emotsional ko'rlik, mehri munosabat tarafdori bo'lish, muloyimlik va halimlik.

Oilada o'smirlar tolerantlik tafakkurini shakllantirishda oila a'zolarining: hamkorlikdagi intellektual, emotsional, mehnat va amaliyotda o'zaro tushunish, muloqot, bir-birini anglash, faoliyatni baholash muhim pedagogik talab hisoblanadi.

Oilada bolaning emotsional, axloqiy va intellektual tarbiyasi shaxsiy ibrat, aytilgan so'z, shaxsiy munosabat, shaxsiy fikr, amaliy ish, hamkorlikdagi muloqot va bas, munozara, muhokama, turli oilaviy tadbirlarni uyushtirish, o'zaro ko'mak, o'zgalarni anglash tajribasi v.b. lar orqali shakllantiriladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha oilada o'smirlar tolerantlik tafakkurini shakllantirish samaradorligi ota-onalarning pedagogik qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Ya'ni, ota-ona shaxsiyati va uning ijobiy namoyon bo'lishi; ota-onadagi yuksak axloqiylik va ma'naviyat; ota-onadagi ijobiy hayotiy tajribaning mavjudligi; ota-onadagi yetarli pedagogik bilim va malakalarning mavjudligi; ota-onadagi turli vaziyatlarga nisbatan tanqidiy munosabatning mavjudligi muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, ota-onaning pedagogik madaniyatiga xos bo'lgan: nutq va axloq madaniyati; kommunikativlik; kreativlik; pertseptivlik; tashkilotchilik; reflektivlik kabi tamoyillarning roli kattadir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, birinchidan, oila – jamiyatning muhim hujayrasi bo'lib, jamiyatning normal rivojlanishi, aholining ko'payishini, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy tarbiyasini, insonning tabiiy ehtiyojlari – sevgi, muhabbat va muloqotni ta'minlaydi. Ikkinchidan, o'zbek xalqi oilaviy turmush, er-xotin munosabatlari, ularning vazifa va burchlari, sifat va fazilatlar aks etgan muqaddas diniy manbalar, o'zbek xalq og'zaki ijodi, Sharqning buyuk mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari asarlarida qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ulardan hozirgi yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda va oilaviy turmush amaliyotida samarali foydalanish mumkin. Uchinchidan, bugungi kunda oila – o'zining tarbiya yo'nalishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uyg'unlik kasb etgan. O'z an'analarini avlodlarning boy tajribalari asosiga qurgan va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitga ega bo'lgani natijasida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitda ham o'zligini yo'qotmaydigan, o'z davri bilan hamisha hamnafas va hamkor oiladir. Odatda bunday oilada oilaviy munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lib, ota-ona va farzandlar, bobo-momolar va nabiralar o'rtasida bir-birini tushunish, anglash, hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, mehr-muruvvat ko'rsatish tamoyillari uyg'unlik kasb etgan bo'ladi. Zamonaviy oilada, xuddi yetuk va fozil jamiyat kabi, bir tomonlama, dogmatik, haqiqat va taraqqiyotga zid, olg'a yurish uchun to'sqinlik qiladigan odat va intilishlar bo'lmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Арипова Г. Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантлик тафаккурини шакллантиришнинг педагогик асослари. -Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010. – 128 б.
2. Арипова Г. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда халқ педагогикасининг роли // Умидли кимёгар-2008. Илмий-техник анжумани мақолалар тўплами. II том. – Тошкент: ТКТИ, 2008. – Б.359-360.
3. Арипова Г. Оила иқтисоди – жамият кўзгуси // Техникавий ва ижтимоий-иқтисодий фанлар соҳаларининг муҳим масалалари. Тошкент Давлат техника университети. Тошкент кимё-технология институти. Республика Олий ўқув юртлараро илмий ишлар тўплами. - Тошкент: ТКТИ, 2009. – Б. 17-19.
4. Арипова Г. Оилада толерантликни шакллантириш // Бошланғич таълим.- Тошкент, 2010. – №11. – 4-5 б.
5. Арипова Г. Оилада ўсмир ёшдаги болаларда толерантликни шакллантиришнинг самарали шакл ва методлари // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. –Б.72-76.

Oynisa MUSURMANOVA,

pedagogika fanlari doktori, professor,

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining

Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari,

Toshkent, O'zbekiston.

Gulnoza SOLIHOVA,

mustaqil tadqiqotchi, Toshkent, O'zbekiston

NOGIRON BOLALARNI IJTIMOYILASHTIRISHNING HUQUQIY-NAZARIY ASOSLARI

Maqolada nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashtirishning huquqiy-nazariy asoslari tahlili keltirilgan. Shuningdek, mualliflar mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Nogiron bola, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy soha, huquqiy asos, insonparvarlik, nogironlarning huquqlarini himoya qilish

В статье представлен анализ правовых и теоретических основ социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. Авторы также высказали свои мнения и комментарии по поводу проводимой работы по развитию социальной сферы в нашей стране.

Ключевые слова. Ребенок-инвалид, социализация, социальная сфера, правовая основа, гуманитарная, защита прав инвалидов.

The article presents the analysis of the legal and theoretical foundations of socialization of children with disabilities. The authors also expressed their views and comments on the work carried out on the development of the social sphere in our country.

Key words. Disabled child, socialization, social sphere, legal basis, humanitarian, protection of the rights of disabled people.

Bugungi kunda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'lib, unda belgilangan vazifalar mamlakatimizda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi, millatimizga xos mehr-shafqatning muhim qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabi vazifalar imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi tizimini tubdan yaxshilashni, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirishni taqozo etmoqda. Nogironligi bolalar va o'smirlarning ta'limi milliy va xalqaro asoslarga egadir. Jumladan, xalqaro hujjatlar: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948 yil, Jeneva), Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya (1975-yil), "Bola huquqlari to'g'risida Konventsiya", "Ta'lim barcha uchun" umumjahon Deklaratsiyasi" (1990 yil, Tayland), "Salamanka bayonoti" (1994 yil, Italiya), "Dakar deklaratsiyasi" (2000-yil, Dakar); milliy huquqiy me'yorlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (41-modda), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (23-modda),